

SANOAT SIYOSATI VA AGRAR SIYOSATI

Rayimov Diyorbek

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

O'qituvchisi hamda iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi (sirtqi) 222-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning sanoat siyosati va agrar siyosati hamda xalqaro darajadagi eng yirik korporatsiyalar, sanoat xoldinglari va albatta davlatimiz rahbarining sanoatimizni xalqaro savdoga olib chiqish yuzasidan olib borayotgan tizimli islohotlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Siyosat, agrar islohot, qishloq, institusional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliqbyudjet, pul-kredit, O'zbekistonda Sanoat siyosati.

Kirish "Siyosat" termini (grek tilidan politika-davlat va jamiyat ishlari) aholi turli guruhlar o'rtasidagi munosabatlar sohasidagi faoliyat, shuningdek davlat ishlaridagi ishtirok, uning faoliyati mazmuni, shakl va vazifalarining aniqlanishi tushuniladi. Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne'matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo'llaniladigan choratadbirlar tizimini ifodalaydi. Davlatning iqtisodiy siyosati o'z ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiyinvestisiyaviy, institusional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliqbyudjet, pul-kredit, hududiy (mintaqaviy) siyosatlarni oladi.¹ Agrar siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u qishloq xo'jaligi va unga bog'liq xo'jalik sohalarini qamrab oladi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini va aholini oziqovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, agrar sektor ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, qishloqlarni obod etish asosida qishloq aholisining daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish vazifalarining amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Uni davlatning agrar iqtisodiyot doirasida harakatga keltiriladigan jarayonlar shakli va metodlari ko'rinishidagi faoliyati deb ham tushunish mumkin. Agrar siyosatni agrar iqtisodiyot sohasida eng ta'sirchan shakl va usullar orqali yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning o'zaro ta'siri orqali amalga oshuvchi agrar sektorda xo'jalik-moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlatning faoliyati sifatida belgilash mumkin. [1]. Agrar siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u qishloq xo'jaligi va unga bog'liq xo'jalik sohalarini qamrab oladi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini va aholini oziqovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, agrar sektor ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, qishloqlarni obod etish asosida qishloq aholisining daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish vazifalarining amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Uni davlatning agrar iqtisodiyot doirasida harakatga keltiriladigan jarayonlar shakli va metodlari ko'rinishidagi faoliyati deb ham tushunish mumkin. Agrar siyosatni agrar iqtisodiyot sohasida eng ta'sirchan shakl va usullar orqali yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning o'zaro ta'siri orqali amalga oshuvchi agrar sektorda xo'jalik-moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan

davlatning faoliyati sifatida belgilash mumkin. Davlatning agrar siyosati qishloq xo'jaligi va hududlarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi deganda ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sishi, qishloq xo'jaligi samaradorligining oshishi, qishloq aholisi to'liq bandligiga erishish va turmush darajasining oshishi, yerlardan oqilona foydalanish tushuniladi. [2]. Agrar siyosat negizida agrar qonunchilik va agrar tarkib shakllanadi. Agrar qonunchilik - qishloq xo'jaligida va qishloq aholisi hayoti bilan bog'liq holda amalga oshayotgan jarayonlarga ta'sir o'tkazuvchi huquqiy me'yorlardir. Yerga egalik munosabatlari, kredit va soliqqa tortish, mehnat munosabatlari, mulkiy munosabatlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'moli yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy ta'minot va boshqalar agrar qonunchilikning muhim sohalariga kiradi: Agrar tarkib - agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xo'jaligi rivojlanishi, aholining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari hisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bog'liq agrar sohaning iqtisodiy, texnik va ijtimoiy unsurlari yig'indisidir. Agrar siyosatning asosiy vazifasi - agrar sohadagi jarayon va qarashlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki kishilarning shu sohadagi qarashlari, jarayonlari va qonunlari tizimidagi faoliyatini ochib berishdir.

Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- mamlakat aholisini iqtisodiy asoslangan baholardagi sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligining umumiy daromad yaratish sohasidagi ishtirokini ta'minlash, agrar sektorni rivojlantirish;
- agrar tashqi savdo siyosatini olib borish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilish.

Agrar siyosatning bosqichlari va rivojlanish tamoyillari Agrar siyosatning turli mamlakatlarda rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining darajasiga qarab har xil bo'lishini hisobga olish lozim. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun qishloq xo'jaligi juda kam ulushdagi qismni tashkil etsada, davlat bu tarmoqqa katta ahamiyat beradi, uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi, samarali agrar siyosat olib borishga harakat qiladi. Shu jihatlarni e'tiborga olib, agrar siyosatning rivojlanish tarixini o'rganish va uning asosiy tamoyillarini mukammallashtirish dolzarb hisoblanadi. [3].

O'zbekiston iqtisodiyotida agrar siyosatning rivojlanish tarixini shartli ravishda bir necha davrlarga bo'lish mumkin.

1. 1920-yillargacha bo'lgan davr. Bu davrda qishloq xo'jaligi tarqoq holda rivojlangan. Qishloq xo'jaligi asosan oziq-ovqat muammosini hal qilish va qisman xorijiy bozorlarga muhim tovarlarni ayirboshlash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Yerga asosan ma'lum guruh egalik qilgan va ularning shaxsiy manfaatlari agrar siyosatning mohiyatini tashkil qilgan. Agrar siyosat soliqlar va to'lov vositalari orqali amalga oshirilgan.



2. 1920-1991-yillar. Mamlakat agrar siyosati asosan paxta yakkahokimligi siyosatiga qaratilgan, yerga egalik davlatning qo'liga, ishlab chiqarish va mulk munosabatlari umumiylikka asoslangan. Agrar siyosat davlat tomonidan, asosan sanoatning manfaatlariga asoslangan holda amalga oshirilgan.

3. 1991-1997-yillar. Barcha sohalarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qishloq xo'jaligida ham amalga oshirilishga harakat qilindi.

4. 1998-yildan keyingi davr. Bu davr mamlakat hukumatining qishloq xo'jaligiga keskin e'tibor qaratishi bilan boshlandi. Mamlakat qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni keskin chuqurlashtirish borasida qator qonun va me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi bu tarmoqqa e'tiborning kuchayishidan dalolat berdi. Mamlakat qishloq xo'jaligidagi mavjud iqtisodiy tushkunlikni yo'qotish va uni samarali rivojlantirishning qator dasturlari ishlab chiqildi va ular davriy ravishda takomillashtirilib amalga oshirilmoqda. Bu davrdagi agrar siyosatning asosiy xususiyatlariga yerga munosabatning keskin o'zgartirilishi, rivojlangan mamlakatlar tajribalari va mamlakat ichki xususiyatlari e'tiborga olinib amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarishni fan yutuqlari asosiga qurish, yangi texnologiyalardan foydalanish kabi bir qator xususiyatlar xosdir. [4]. O'zbekistonda Sanoat siyosati tadqiqotlari markazi tashkil etildi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida Sanoat siyosati tadqiqotlari markazi tashkil etiladi. Shuningdek, yuqori texnologik va qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni mahalliyashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish tizimi joriy qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 27-mart kuni investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazilgan edi. Ta'kidlanishicha, mamlakatdagi qulay biznes muhiti samarasida so'nggi yillarda chet el korxonalari 5 mingtadan 16 mingtaga ko'paydi. Har bir tuman va shaharga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi. Yil boshidan **764 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilgani, 1,3 mingta yirik va o'rta loyihalar ishga tushirilgani** qayd etildi. Eksport **3 milliard dollarni** tashkil qilgan. Prezident bu natijalar yetarli emasligini, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyatda ikki karra ko'proq harakat qilish kerakligini ta'kidladi. Shu bois prezident ishga tushadigan loyihalar ijrosini hududlar va tarmoqlar kesimida kunlik nazorat qilib, muammolarni hal qilib borish zarurligini ta'kidladi. 304 ta yirik va 3 mingta hududiy loyihani ishga tushirilishi natijasida 2023-yilning o'zida **10 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarish va 200 million dollarlik eksport** qilish imkoniyatlari mavjud. Yuqori texnologik va qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni mahalliyashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy qilish, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida **Sanoat siyosati tadqiqotlari markazini** tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. [5].

Xulosa: Mamlakatni iqtisodiyot drayveri bu – albatta sanoat. Sanoatni rivojlantirmasdan turib yuksalish, rivojlanish mumkin emas, 2024-yil yanvar oyidan to bugungi kunga qadar jami bo'lib davlatimiz rahbari 33 marta yurtimizning turli hududlarida sanoat loyihalari bilan tanishgan. Shundan aksari xalqaro hamkorliklar asosida yo'lga qo'yilgan sanoat loyihalaridir. [6]. Birgina misol bilan bunday

loyihalardan keltirishimiz mumkin. 2023-yil 27 dekabr kuni Prezident **Shavkat Mirziyoyev** Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida jami 2,4 gigavattlik quyosh va shamol elektr stansiyalarini foydalanishga topshirish va tarmoqqa ulash ishlariga start berdi. [7]. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Indenim Textile” klasterining Termiz shahridagi to‘qimachilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi. (<https://president.uz/uz/lists/view/6871>) mazkur loyiha

2023-yil 16-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida Sariosiyo tumanidagi Sebzor mahallasidagi fermer xo‘jaligi va tibbiyot punkti faoliyati bilan tanishdi. (<https://president.uz/uz/lists/view/6865>).

Mamalakatimiz rahbari boshchiligidagi Surxondaryoda ham ko‘plab istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. “Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi”. Ukuv kullanma. T.: “UzR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” bosmaxonasi nashriyoti, 2016. - 257 b.
2. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi- (darslik)- T.: TDIU, 2004. - 304 bet.
3. Just R.E., N Bockstael. Commodity and resource policies in Agricultural Systems, Springer-Verlag, Berlin Heidelberg 1991
4. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006-yil.

INTERNET VA IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI RESURSLAR

5. <https://t.me/shmirziyoyev/16581?single>
6. <https://t.me/shmirziyoyev>
7. <https://t.me/shmirziyoyev/20260>

